

Published Date:- 17-10-2023

Nemis va o‘zbek tillaridagi son so‘z turkumi ishtirok etgan paremiologik birliklarning lingvokulturologik tahlili

Komolova Shaxnozaxon Adxamovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
tayanch doktoranti
komolova-shahnoza@mail.ru

***Annotatsiya:** Paremiologik birliklar har bir xalqning o‘ziga xos milliy xarakterini ifodalaydi. Shuning uchun har bir paremiologik birlikda ana shu xalqning turmush sharoiti, ijtimoiy hayoti, urf-odatlar, an‘analari, uy-ro‘zg‘or tutumlari, o‘y-kechinmalari, xis-tuyg‘ulari va boshqalar o‘z aksini topadi. Ushbu maqolada nemis va o‘zbek xalqining o‘ziga xos milliy va madaniy qarashlari son so‘z turkumi ishtirok etgan paremiologik birliklar asosida tahlilga tortiladi.*

***Kalit so‘zlar:** maqol, paremiologik birlik, milliy, madaniy, lingvomadaniy, son so‘z turkumi, qadriyat.*

Лингвокультурологический анализ паремиологических единиц, участвующих в числовой категории слов в немецком и узбекском языках

***Аннотация:** паремиологические единицы выражают специфический национальный характер каждого народа. Поэтому в каждой паремиологической единице отражаются условия жизни, общественная жизнь, обычаи, традиции, бытовые установки, мысли, переживания, чувства и т.д. этого народа. В этой статье будут проанализированы специфические национальные и культурные взгляды немецкого и узбекского народов на основе паремиологических единиц, в которых участвует числовой ряд слов.*

***Ключевые слова:** пословица, паремиологическая единица, национальный, культур, лингвокультурологический, имя числительное, значение.*

Linguoculturological analysis of paremiological units in which a number of word categories in German and Uzbek languages were involved
***Annotation:** The Paremiological ones represent the unique national character of each people. Therefore, in each paremiological unit, the living conditions, social life, customs, traditions, household smoke, thoughts, feelings, etc. of this people are reflected. In this article, the specific millennial and cultural views of the German and Uzbek people are subject to analysis on the basis of the paremiological units in which the numerical word category is involved.*

***Keywords:** proverb, paremiological unit, national, cultural, linguistic, numerical word category, value.*

Published Date:- 17-10-2023

Sayyoramizning turli mintaqalarida ko‘plab millat va elatlar o‘ziga xos sharoitlarda istiqomat qiladi. Turli xil sharoit o‘z-o‘zidan xalqlarning o‘ziga xos milliy urf-odatlarini, ijtimoiy hayoti va so‘zlashuvining o‘ziga xos tarzda shakllanishini taqozo etadi. Xalqlarning ana shunday turli – tuman yashash sharoiti, madaniyati, milliyliigi ularning tilida mavjud peremiologik birliklar orqali yuzaga chiqadi. Ushbu maqola orqali bir-biriga na geografik jihatdan, na mentalitet jihatdan qarindosh bo‘lgan nemis va o‘zbek xalqining tilida aks etuvchi paremiologik birliklarni lingvomadaniy jihatdan tahlil etishni oldimizda maqsad qildik.

Morfologik jihatdan paremiologik birliklarning tarkibida barcha so‘z turkumlari ishtirok etadi. Nemis va o‘zbek tillarida zidlik tushunchasini ifodalovchi paremiologik birliklarda o‘tkazilgan kichik tadqiqotimizdan kelib chiqib aytish mumkinki, so‘z turkumlari orasida son so‘z turkumi paremiologik birliklar tarkibida eng kam ishtirok etadi [1]. Paremiologik birliklar tarkibida ishtirok etuvchi son so‘z turkumiga oid leksemalar nemis va o‘zbek xalqining ma’naviy, madaniy va ijtimoiy hayotidagi ma’lum vaziyatlarni o‘ziga xos tarzda namoyon etadi. Paremiyalarda qo‘llanilgan sonlar har bir xalqning o‘ziga xos milliy, madaniy va diniy qadriyatlarini hamda dunyoqarashini o‘zida aks ettiradi. Masalan, o‘zbek xalqining paremiologik birliklarida (PB larida) 40 sonini ko‘plab uchratish mumkin. Ushbu sonning o‘zgacha xos xususiyati o‘zbek xalqi orasida diniy nuqtai nazardan talqin qilinadi. 40 kun chilla o‘tirish, onanig qornida chaqaloqning tanasiga qirqinchi kuni ruh sifatida jon kirishi, shuningdek, bir qancha Payg‘ambarlar bilan bog‘liq hodisalar va shu kabilar musulmonlar hayotida ba’zi sonlar ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi va ular musulmon xalqlarining milliy paremiyalarida o‘z aksini topgan. *Bir kun janjal bo‘lgan yerda qirq kun Baraka ketadi. Bir yigitga qirq xunar oz. Bir mayizni qirq bo‘lib yeydi. Eshak qirqqa kirganda qilig‘i chiqadi. Qing‘ir ishning qiyig‘i qirq yilda ham chiqadi* kabilar shular jumlsidandir. *Bir kun tuz yegan joyingga qirq kun salom ber* paremiyasi orqali bir marta yaxshilik ko‘rgan joyni va odamlarini hech qachon unutmaslikka, ularga yomonlik qilmaslikka chaqiradi. Ushbu maqolda inson kimdandir bir yaxshilik ko‘rsa, unga albatta ma’lum bir miqdorda yaxshilik bilan javob berishi lozimligi son orqali ifodalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Sonlar ishtirok etgan paremiyalarni nemis xalqining tilida ham birdek uchratish mumkin. Masalan, *Einmal Sehen ist besser als tausendmal Hören – Ming marta eshitgandan, bir marta ko‘rgan yaxshi* maqolida inson eshitganidan ko‘ra, ko‘rgan narsasiga ko‘proq ishonishi muhimligini sonlar tasdiqlaydi. Chunki eshitgan narsamiz har doim ham aslidek bo‘lavermaydi. Nemis xalqining *Aller guten Dinge sind drei* paremiyasi biror narsaga erishishda yoki olish uchun uch marotaba urinish mumkinligini anglatadi. Bu paremiologik birlik o‘zbek tilidagi *Uch marta imkoiyat beriladi, Uchinchisi-puchinchisi bo‘ladi* kabi paremalariga ekvivalent sifatida to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, uch raqami nemis xalqining dinida va diniy urf-odatlarida alohida o‘rin tutadi. *Eine Schwalbe macht noch keinen Sommer-Bitta qaldirg‘och kelgani bilan yoz bo‘lib qolmaydi.* Bu maqolning kelib chiqishi

Published Date:- 17-10-2023

Ezopning masali bilan bog‘liq. Uning qisqa mazmuni quyidagicha: bir kishi uchib yurgan bitta qaldirg‘ochni ko‘rgach, o‘z paltosini sotadi. Chunki u yoz yaqinlashmoqda deb taxmin qiladi. Lekin afsus kunlar hali beri isimaydi va juda erta qaytgan qaldirg‘och muzlab o‘ladi. Nemis va o‘zbek tillaridagi shu va shu kabi paremiologik birliklar kishini mulohaza qilishga, o‘ylab ish qilishga chaqiradi. Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, paremiyalar tarkibidagi sonlar ma‘noni yanada kuchaytirishga va ta‘sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Quyida nemis va o‘zbek tillaridagi sonlar ishtirok etgan paremiologik birliklarni formulalar asosida mos kelishi, farqlanishi va umuman mos kelmaslik holatlarini ko‘rib chiqamiz:

Sonlar ishtirokiga ko‘ra mos kelishi

Son	Nemis tilidagi PBlar	O‘zbek tilidagi PBlar
1	Ein Mann- <i>ein</i> Wort. <i>Einen</i> alten Baum soll man nicht verpflanzen. Es reißt am <i>ersten</i> , wo‘ <i>s</i> dünn ist	Erkak <i>bitta</i> gapiradi. Daraxt <i>bir</i> yerda ko‘karadi. Arqon ham <i>birinchi</i> bo‘lib ingichka yeridan uziladi.
1/2	<i>Ein</i> alter Freund besser als <i>zwei</i> neue.	<i>Bitta</i> eski do‘sting <i>ikkita</i> yangisidan yaxshiroq.
1/7/7/1	<i>Eine</i> Mutter kann <i>sieben</i> Kinder ernähren, <i>sieben</i> Kinder aber nicht <i>eine</i> Mutter.	<i>Bir</i> ona <i>yettita</i> bolani boqa oladi, <i>yettita</i> bola <i>bir</i> onani boqa olmaydi.
1/10	<i>Eine</i> Lüge schleppt <i>zehn</i> andere nach sich.	<i>Bitta</i> yolg‘on <i>o‘nta</i> yolg‘onni chaqiradi.
1/100	<i>Ein</i> Frauenhaar zieht mehr als <i>hundert</i> Paar Ochsen.	<i>Bir</i> ayolning sochi <i>yuz</i> xokizdan kuchliroq.
1/1000	<i>Besser einmal</i> sehen als <i>tausendmal</i> hören.	<i>Bir</i> marta ko‘rgan <i>ming</i> bora eshitgandan yaxshiroq.
2	Niemand kann <i>zwei</i> Herren dienen. Es hat alles <i>zwei</i> Seiten.	<i>Ikki</i> kemandning boshini tutgan g‘arq bo‘lar. Hamma narsaning <i>ikki</i> tomoni bor.
2/1	<i>Zwei</i> Seelen und <i>ein</i> Gedanke. <i>Zwei</i> Hähne taugen nicht auf <i>einen</i> Mist.	<i>Ikki</i> qalbdan <i>bir</i> fikr. <i>Ikki</i> qo‘chqorning boshi <i>bir</i> qozonda qaynamas.
4	Nicht alle Esel hat <i>vier</i> Beine	Hamma eshak ham <i>to‘rt</i> oyoqli bo‘lavermaydi.
4/2	<i>Vier</i> Augen sehen mehr als <i>zwei</i>	<i>To‘rtta</i> ko‘z <i>ikkita</i> ko‘zdan yaxshiroq ko‘radi.
10	Heute ist besser als <i>zehn</i> morgen.	<i>O‘nta</i> ertadan bugun afzal.
1000	Furcht hat <i>tausend</i> Augen	Vahimaning ko‘zi <i>mingta</i> .

Sonlar ishtirokiga ko‘ra farqlanish

Son	Nemis tilidagi PBlar	O‘zbek tilidagi PBlar
-----	----------------------	-----------------------

Published Date:- 17-10-2023

1/1	*Zweimal kann niemand, einmal muß jeder sterben.	<i>Bir boshga –bir o‘lim</i>
1/1000	* <i>Einmal ist keinmal</i>	<i>Bir kun ming kun bo‘lmas.</i>
2/3	Wenn <i>zwei</i> sich streiten, freut sich der <i>Dritte</i>	*Ikki xo‘roz urushsa, tovuqlar dam oladi.
3	Unrecht Gut hat kurze Währ, der <i>dritte</i> Ebbe sieht´s nicht mehr.	* Qingir ishning qiyig‘i qirq yilda ham chiqadi.
3/1	Man muß <i>dreimal</i> messen, ehe man <i>einmal</i> schneiden.	*Yetti o‘lchab bir kes.
3/30	Was <i>drei</i> wissen, erfahren bald <i>dreißig</i> .	*Uch kishi bilgan sir sir emas.
4/9	Was einer früh um <i>viere</i> tut, das kommt ihm nachts um <i>neun</i> zu gut.	* Erta turganning rizqi butun.
5	*Dummheit und Stoly wachsen auf einem Holz.	<i>Besh</i> qo‘l barobar emas.
1000/1	Wer <i>tausendmal</i> trügt, wird wohl auch <i>einmal</i> betrogen.	* <i>Ming</i> marta aldagan odam barbir <i>bir</i> marotaba aldanadi.

Sonlar ishtirokiga ko‘ra mos kelmaslik holati

Son	Nemis tilidagi PBlar	O‘zbek tilidagi PBlar
1/3		<i>Bir</i> bulduruq <i>uch</i> qorga tatiydi.
1/40		<i>Bir</i> kun janjal bo‘lgan yerda <i>qirq</i> kun baraka ketadi.
1/1000		<i>Bir</i> ko‘ngil imorati, <i>ming</i> Makka ziyorati.
2/15/1/30		<i>Ikki</i> o‘n <i>besh</i> bir o‘ttiz.
3/2	Wer <i>drei</i> Feinde hat, muß sich mit <i>zweiein</i> vertragen-	-
8		<i>Sakkinzinchi</i> mart paranjisin tort. Sanamay <i>sakkiz</i> dema.
10/1		<i>O‘nta</i> „hap-hap“dan bitta „chap-chap“yaxshi
10/40		<i>O‘nta</i> bo‘lsa o‘rni boshqa, <i>qirqta</i> bo‘lsa qilig‘i.
15/15		Oyning <i>o‘n beshi</i> yorug‘, <i>o‘n beshi</i> qorong‘u.
30/9		Men qilaman <i>o‘ttiz</i> , tangrim qiladi <i>to‘qqiz</i>
40/41		<i>Qirqiga</i> chidagan <i>qirq</i> biriga ham chidaydi.

Published Date:- 17-10-2023

100/1		<i>Yuzta “siz-biz” dan bitta “jiz-biz” yaxshi</i>
-------	--	---

Yuqorida keltirib o‘tilgan paremiologik birliklar tarkibidagi sonlar holat, vaziyat, inson tana a‘zolari, shaxslarning soni va miqdorini ifodalash uchun xizmat qiladi hamda taqsimlash, muvofiqlik, muddat, inson yoshi kabi tushunchalarni anglatadi. Har ikkala tilda sonlar ishtirok etgan paremiyalarning ekvivalentlari ko‘p holatlarda bir-biriga to‘liq mos kelishi aniqlandi. Ba‘zi holatlarda esa nemis va o‘zbek xalqlarining sonlar ishitok etgan maqollari ekvivalentlarida raqamlarning oz‘aro bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi yoki boshqa bir raqam bilan ifodalanishi kuzatildi. Bundan tashqari bir tilda maqoli tarkibida ishtirok etgan son shu maqolning ikkinchi tildagi ekvivalentida umuman qo‘llanilmaslik holatlari ham aniqlandi. Albatta bu har ikkala xalqning turmush sharoiti, madaniyati va diniy qadriyatlaridagi tafovutning ko‘rinishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Komolova Sh.A. Nemis va o'zbek tillarida zidlikni ifodalovchi tushunchalar va ularning lingvomadaniy xususiyatlari. Til va adaviyot ta'limi, 2023. №4.
2. Xolmanova Z., Valiyeva G., Muhammadiyeva D. O'zbek tilidagi paremiyalar tadqiqi. Monografiya. Mahalla va oila. Toshkent. 2022.
3. Imyaminova Sh., Komolova Sh.A. Nemischa-o'zbekcha maqol va matallar lug'ati. Mumtoz so'z. Toshkent. 2013.
4. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар маҳзани. “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001.